



**CHEKKA HUDUDLARDAGI IJODKOR O`QUVCHILARNING MA`NAVIY -
MA`RIFIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

*Malikova Dilraboxon Maxmudovna
TPMI (O‘zPFITI) mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada chekka qishloqlar hududida maktablar qoshida tashkil etiladigan to‘garaklar va ularning zarurati haqida fikr yuritiladi. Ijodkor va iste’dodli o‘uchilar bilan ishlash uchun malakali mutaxassislarni jalb etish lozimligi o‘rganiladi. Ijodkor o‘quvchilar bilan ishslashda psixolog o‘rni ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: o‘quvchilar, mutaxassis, psixolog, ijodkor, iste’dod, qobiliyat, chekka qishloq.

**РАЗВИТИЕ ДУХОВНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКИХ
СТУДЕНТОВ НА ВНЕШНИХ ТЕРРИТОРИЯХ**

Абстрактный. В статье речь идёт о целесообразности открытия при сельских школах кружков для работы с одарёнными учениками. Рассматривается проблема обеспечения квалифицированными специалистами. Рекомендуется содействие школьных учителей, психолога и руководителей кружков.

Ключевые слова: ученики, специалист, психолог, созидатель, талант, способность, далёкое село.

**DEVELOPMENT OF THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL SKILLS OF
CREATIVE STUDENTS IN OUTSIDE AREAS**

Abstract. The article discusses the feasibility of opening clubs in rural schools to work with gifted students. The problem of providing qualified specialists is considered. The assistance of school teachers, psychologists and club leaders is recommended.

Key words: students, specialist, psychologist, creator, talent, ability, distant village.

Nazariya. Iste’dodlar tarbiyasida xalqimizning yetarlicha tajribaga ega ekanligidan xabardormiz. Chunki vaqtida kashf qilingan iste’dod sohiblari kelajakda yurt xizmatiga yaraydigan insonlar bo‘lib yetishishi ularning shu davrida to‘g`ri tarbiyalanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ish olib borayotgan pedagog xodimlar bolajonlarning ijodiy qirralarini ochishlarida ularga guruh tarbiyachilarini yordamlashadilar. Oila a’zolari ham kichkintoylarning qaysi jihatlari kuchli ekanligini

anglashlari va rag‘batlantirishlari lozim. Iste’dodning natijasi to‘qson to‘qqiz foiz mehnat orqasidan vujudga keladi. Bunda iste’dod egasidan tashqari murabbiy, ota-oni va boshqalarning beminnat xizmati nazarda tutilmoqda.

Hozirgi vaqtida respublikamiz hududida ijod maktablariga keng yo‘l ochilgan. Turli viloyatlarda shu yerda tug‘ilib o‘sgan shoir va yozuvchilar ijod maktablari faoliyat olib bormoqda. Bunday maktablarda o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan, shu sababli bu ta’lim dargohlarida qalamini charxlashni o‘rganishga talabgorlar juda ko‘p. O‘quvchilar tanlov asosida qabul qilinadilar. Ammo bu singari ijod maktablari faqat qalamkashlar uchun emas, balki boshqa turdag'i san’at turlari bilan mashg‘ul bo‘ladigan bolalar uchun ham tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. To‘g‘ri har bir tumanda bolalar musiqa va san’at maktablari mavjud va ularda ko‘plab iste’dodlar tahsil olmoqda. Shunga qaramay bunday ta’lim maskanlariga ehtiyoj yil sayin ortib bormoqda. Maxsus ustaxonalarga ega bo‘lgan san’at maktablarida ham tanlov asosida qabul qilingan o‘quvchilar tahsil olsa, natija yanada muvaffaqiyatliroq bo‘lar edi.

Ammo shuni ta’kidlash lozimki, barcha iste’dod sohiblari ham maxsus ijod maktablari, musiqa va san’at dargohlarida ta’lim olish imkoniga ega bo‘lmaydilar.

Chekka qishloq maktablari o‘quvchilari uchun ta’lim muassasasi tomonidan yoshlar ishlari agentligi hamda tuman va viloyat hokimiyatlari boshchiligidagi to‘garaklar tashkil qilib borilsa, iste’dodlar tarbiyasiga hissa qo‘silar edi. Maktab binolari loyihasi tuzilayotganda, turli ijodiy ustaxonalar nazarda tutilishi lozim. Ta’lim dargohining moddiy bazasini tashkil etishda o‘quvchilarning turli ehtiyojlari albatta hisobga olinishi kerak, chunki tuman markaziga qatnash vaqt va mablag‘ talab qiladi. Qishloq maktablarida mutaxassislar yetishmovchiligi, ayrimlarida kompyuterlarning ozligi faoliyatga xalaqit beradi. Ammo qiyinchiliklar bilan kurashish, muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish muvaffaqiyat kaliti bo‘lishi mumkin.

Metodika. Mamlakatimiz hayotida yoshlar faol ishtirok etmoqdalar. Ilmiy tadqiqot olib borayotganlarning katta ulushi o‘ttiz yoshgacha bo‘lganlardan iborat. Biroq chekka qishloqlarda ishlashni istaydigan yoshlar ozchilikni tashkil qiladi. Maktablar qoshidagi to‘garaklarda ishslash maqsadida deyarli tashabbus mavjud emas. Shu sabab ko‘plab iste’dodlar kashf etilmay qolib ketmoqda. Shuni inobatga olib, yosh mutaxassislarning qishloq maktablari qoshida to‘garaklar tashkil etishlari va ularda ish olib borishlarini rag‘batlantirib borilgani ma’qul bo‘lardi.

Yosh to‘garak rahbarlari bilan o‘quvchilar orasida munosabatlar rivojlanishi osonlashadi, chunki ular o‘rtasidagi tafovut katta emas. Oddiy muloqot ular orasidagi do‘stona munosabatlarning shakllanishiga olib kelishi, natijada izlanishdagi o‘quvchilar o‘zlarini qiyayotgan muammolar bilan murojaat qilishlari tabiiy holga aylanadi. Iste’dodli yoshlar juda tortinchoq bo‘lishlari mumkin, bu mavjud holat. O‘z ijodiy qobiliyatlarini kim uchundir kulgili yoki tushunarsiz ekanligini sezib qolishlari ham ularni tushkunlikka olib borishi mumkin. Buning oldini olish uchun yoshlarning qirralarini vaqt-vaqt bilan maqtab turish, ijod mahsullarini atrofdagilarga namoyish qilib, muvaffaqiyatlarini ta’kidlash, kamchiliklarni bartaraf etish uchun qulay jihatlarni ko‘rsatib turish joiz.

Iste’dodli o‘smirlar, ayniqsa injiqlashadilar, ular o‘zlarining boshqalardan ajralib turishidan xijolat bo‘lishlari, kulgiga qolishdan qo‘rqishlari ko‘p hollarda ijodlariga to‘sinqilik qiladi. Malakali mutaxassislar bularni oldindan ko‘ra bilishi va o‘quvchilarni ruhlantira bilishlari amalda ijobiy natijadarga sabab bo‘ladi.

Ijodkor o‘quvchilar ilmiy va madaniy yangiliklarni kuzatib boradilar va ularni o‘zlashtirib, kamchilik hamda yutuqlarini o‘rganish jarayonida to‘ldirishlari mumkin. Bu hollarda o‘qituvchilar, ota-onalar, to‘garak rahbarlari va boshqalar ularni eshitishga tayyor bo‘lishlari, zarur paytda qo‘llab-quvvatlashlari lozim. Maktab o‘qituvchilari va to‘garak rahbarlari hamjihatlikda qo‘shma rejalar tuzib ish olib borsalar maqsadga muvofiq bo‘ladi.

To‘garak rejasidan o‘quv dasturidan o‘rin olmagan, ammo o‘quvchilar bilimini rivojlantirishga xizmat qiladigan zamonaviy va an’anaviy ma’lumotlarni, adabiyot hamda manbalarni kiritish, vaqtida qo‘shimchalar kiritib borish ijobiy natijalarga olib keladi.

Ijodkor o‘quvchilar bilan ishlaydigan mutaxassislarning o‘zlarida ham yaratuvchanlik qobiliyati mavjud bo‘lgani ma’qul. O‘qituvchi va to‘garak rahbarlarining izlanuvchanligi yangiliklarni tez tahlil qilish, ijobiy va salbiy tomonlarini oldindan ko‘ra bilish xususiyatlarini shakllantiradi. Vaziyatlarni oldindan prognoz qilish xususiyatiga ega bo‘lgan o‘smirlarni boshqarishda muammolar kelib chiqmasligi uchun ularning fikrlarini puxta o‘rganish, bosqichma-bosqich tahlil qilish va mulohaza bildirish, yakuniy xulosaga hamjihatlikda erishish talab qilinadi. Aks holda, o‘smirlar noto‘g‘ri motivatsiya natijasida salbiy oqibatlar keltirishi mumkin bo‘lgan holatga tushib qolishlari hech gap emas. Bolalar uchun o‘yin yaratayotgan o‘smir o‘qotar qurollar yordamida zo‘ravonlik elementlari mavjud holatlarning nima sababdan kichkintoylar ruhiyatiga yomon ta’sir ko‘rsatishini anglashi pedagoglar oldidagi muhim vazifadir. Shularni nazarda tutgan holda, ijodkor o‘quvchi yoshlarning tashabbusini so‘ndirmasdan ularning qobiliyatini to‘g‘ri tomonga yo‘naltira bilish kerak.

Ijodkor o‘quvchilar tengdoshlariga nisbatan kuchliroq fikrlash va tahlil qilish xususiyatiga ega, shuni inobatga olgan tarzda, ular bilan ishlaydigan mutaxassislar ham kreativ g‘oyalarga befarq bo‘lmagan, tanqidiy nuqtai nazardan qochmaydigan pedagoglar bo‘lishi talab qilinadi. Yosh avlod bilan ish olib boradigan har qanday ustoz avvalo ularning iste’dodlarini tanlay bilishi, ijodiy mehnatini qadrlashi zarur. O‘z o‘quvchilari fikriga ikkinchi darajali kabi munosabat yoshlar uchun qattiq ta’sir kuchiga ega bo‘lishi, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Taqqoslash uchun o‘tgan asrning oxirlari va ikki minginchi yillarning boshlarida o‘quchilarning qiziqishlariga e’tibor pasaydi va natijada jinoyatchilik ko‘paydi. Bunday og‘ir voqeliklar oldini olish uchun ilg‘or fikrlaydigan o‘quvchilar bilan ishlydigan kadrlarga alohida e’tibor bilan qarash lozim. Ijodkor o‘quvchilar fikrini to‘g‘ri yo‘naltirishda mutaxassis pedagoglar uchun masalaning katta-kichigi yoki asosiy va ertaga qoldiriladigani bo‘lmasligi kerak. Bugun ahamiyatsizdek ko‘ringan muammo ertaga murakkab vaziyatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Yuqorida ijodkor o‘quvchilar bilan ishlaydigan maktab va to‘garaklarning moddiy-texnik holatiga jiddiy e’tibor qaratish lozimligini qayd etib o‘tgan edik. Chekka tuman maktab o‘quvchilari har doim ham tasvairiy san’at va haykaltaroshlik uchun zarur bo‘lgan vositalarni topa olmasliklari mumkin. Teatrlashtirilgan tomoshalarni tashkil etishda sahna rekvizitlarini vaqtida topish ham muhim. To‘garak rahbarlari o‘z o‘quvchilarining ijod namunalari namoyishini tashkil etish orqali ularning tengdoshlari, ota-onalari, o‘qituvchilari tomonidan bildirilayotgan fikr-mulohazalarini tinglashlarini uyushtirishlari lozim. Bunday vaqtida o‘quvchi ilhomlanadi, yangiliklar yaratishga qiziqadi, bugun oddiy haykal yasagan o‘smir kun kelib, nodir asarlar yaratishi, to‘rtlik yozgan o‘quvchi tarixiy doston bitishi ustozlarning motivatsiyasiga ham bog‘liq.

O‘z ustida ishlashdan to‘xtab qolgan o‘quvchilar bilan alohida shug‘ullanish kerak, agar ulardagi qobiliyatni so‘ndirmasdan, aksincha, rivojlantirilsa, ularning tushkunlikka tushish holatlarining oldi olinadi, ilmiy-ijodiy izlanishga intilishi ortadi. Bo‘sh vaqt muammosi bartaraf etiladi.

Iste’dodli o‘quvchilar hamisha qo‘llab-quvvatlashni kutadilar, ota-onalari, ustozlari va notanish insonlarning maqtovlari ularning ruhini ko‘taradi, ammo noto‘g‘ri va noo‘rin bildirilgan salbiy fikr batamom sindirib qo‘yishi mumkin. O‘smir yoshlar tomonidan ijro etilayotgan har qanday san’at namunasiga e’tiborsiz qarash ularga juda yomon ta’sir qilishini doim esda tutish shart. O‘quvchilardagi qobiliyatlar ba’zan bir urinishda ko‘rinmasligi mumkin, ammo serqirra o‘smirlar ham ko‘plab topiladi. Bunday holat yuzaga kelganida shogirdning kuchliroq va o‘ziga qiziqarli jihatini rivojlantirish lozim. Iste’dodli o‘quvchilar doimiy izlanishda, ular borgan sari yangi ixtirolarga qo‘l urishni istaydilar, ba’zan biror moslamaning nimadan yasalgani, qanday o‘rnatilganini bilish uchun buzib qo‘yishlari aniq. Bunday vaziyatlarda o‘quvchilarning qiziqishlarini so‘ndirmagan holda ular bilan tushuntirish ishlarini olib borish kerak.

Biz iste’dodli, qobiliyatli, ijodkor o‘quvchi deganimizda ko‘z oldimizga qo‘sinqchi, musiqa asbobini chalayotgan, she’r yoki hikoya yozayotgan, biror narsa yasayotgan va yaratayotgan o‘smirlarni hamda yoshlarni tasavvur qilamiz, ammo qobiliyat va iste’dodning ko‘rinishlari turlicha. Har bir o‘quvchi alohida shaxs, shu bois ular bilan ishslash mexanizmlarini ko‘rib chiqish va maxsus rejalar tuzishimiz lozim. O‘quvchilarning ruhiy-intellektual holatidan kelib chiqib, maktabdagagi psixolog mutaxassis ko‘magida dasturlar yaratishimiz, tadbiq etishimiz maqsadga muvofiq. Ta’kidlanganidek, ijodkor o‘quvchilar fikrlash doirasi va dunyoqarashi tengdoshlaridan farqli. Ular doim faol, hamma narsaga qiziquvchan, boshqalarni o‘zlarining ixtirolari kerakli ekanligiga ishontirishdan charchamaydigan bo‘lishlari mumkin. Ayrim qobiliyatli o‘quvchilar hech qachon o‘zlarining ishlaridan qoniqmaydilar va takomillashtirishga intiladilar, bunday o‘smirlar, hatto, boshqa ixtirolarning ham kamchilagini topishga usta bo‘lishadi. Ularga saboq berishda har tomonlama tayyorlanish lozim.

Xulosa. Demak, ijodkor va iste’dodli o‘quvchilar bilan alohida ishslash zamonaviy ta’limning ajralmas qismidir. Uzoq qishloq hududlaridagi maktablar qoshida tashkil qilingan

to‘garaklar va qo‘sishimcha ta’lim o‘choqlari o‘quvchilarning ehtiyojiga to‘la javob berishi uchun yetarli mutaxassislar bilan ta’minlangan bo‘lishi shart. To‘garak rahbarlari o‘qituvchilar hamda psixologlar bilan hamkorlik qilishlari maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Лемешко Э.М, Левченко А.В, Кузнецова И.В. Работа с одарёнными детьми в учреждении дополнительного образования.
2. Штепа А.Д.материалы все Российской научно-практической конференции «Наука и социум», 2021.
3. Ганиева А.Ф. Профессиональные основы с одарёнными детьми в условиях современной школы на месте. 2021.